INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARINI BOSHQARISH

Feruza Valiyeva Rashidovna

Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti,
“Maktabgacha ta’lim menejmenti” kafedrasi mudiri,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD dotsent
Tel: +998889083070
E-mail: fera_1981@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.15255841

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarishda innovatsion texnologiyalar, innovatsion boshqarish va uning tamoyillari, innovatsion jarayonning tarkibiy tuzilishi va muammolari, yangilanishga ehtiyojlar keltirilgan.

KALIT SO‘ZLAR

innovatsiya, ehtiyoj, yangiliklar diffuziyasi, innovatsion model.

УПРАВЛЕНИЕ ДОШКОЛЬНЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ОРГАНИЗАЦИЯМИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Феруза Валиева Рашидовна

Заведующая кафедрой «Менеджмент дошкольного образования»,
Институт переподготовки и повышения квалификации
директоров и специалистов дошкольных образовательных организаций,
Кандидат философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
номер: +998889083070
Эл. почта: fera_1981@mail.ru

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются инновационные технологии в управлении учреждениями дошкольного образования, принципы инновационного управления, структура и проблемы инновационных процессов, а также необходимость обновления.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

инновация, потребность, диффузия новшеств, инновационная модель.

MANAGEMENT OF PRESCHOOL EDUCATION INSTITUTIONS BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES

Feruza Valiyeva Rashidovna

Head of the Department of Preschool Education Management,
Institute for Retraining and Professional Development of
Directors and Specialists of Preschool Education Institutions,

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Phone number: +998889083070
E-mail: fera_1981@mail.ru

ABSTRACT

This article discusses the use of innovative technologies in the management of preschool education institutions. It examines the principles of innovative management, the structural components and challenges of the innovation process, as well as the emerging needs for renewal within the system. Special attention is given to the dynamics of change and the necessity of adopting innovation-based approaches in organizational governance.

KEYWORDS

innovation, need, diffusion of innovations, innovation model.
.

Innovatsiya bo‘yicha juda ko‘p tushunchalar keltirilgan. Masalan, u mazmun va mohiyati, ichki tuzilishiga ko‘ra texnikaviy, iqtisodiy, tashkiliy, boshqaruv va boshqa innovatsiya turlariga ajratilgan. Innovatsiyaning belgilari sifatida, uning ko‘lami (global va lokal), hayotiy davrining o‘lchamlari (bosqichlarga ajratish va tahlil qilish), amaliyotga tatbiq etish jarayonining qonuniyatlari ajratib ko‘rsatilgan.

“Innovatsiya” tushunchasi (lotincha so‘zdan olingan bo‘lib novus – yangi degan ma’noni anglatadi) tadqiqotlarda va ilmiy ishlarda XIX-asrlarda qo‘llanila boshlanib, oldingi vaqtlarda u alohida elementlarni bir sohadan boshqa sohaga kirgizishni ifodalagan.

Innovatsiya - maqsadga yo‘naltirilgan o‘zgartirishlar bo‘lib, ma’lum bir ijtimoiy birlikka - muassasa, uyushma, jamoa va guruhlarga yangi va nisbatan barqaror bo‘lgan elemyentlarni, umumiy holda xalqning ma’naviy-madaniy munosabatlari va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan yangiliklarni kiritishdir.

Ba’zida innovatsiya jarayon sifatida ko‘rib chiqiladi. Bunda yangiliklar kiritishning rivojlanishi vaqtga bog‘liq bo‘lib, u aniq ifodalangan bosqichlarga ega deb ko‘rsatiladi.

Mamlakatimiz olimlari Sh.Qurbonov, E.Seythalilov, M.Kuronov, R.Axliddinov va I.Majidovlar innovatsiyalarni ta’lim makonidagi xilma-xil tashabbuslar va yangiliklarning to‘planishi va shaklini o‘zgartirishi tamoyillarida o‘z ifodasini topuvchi, ta’limni rivojlantirishning muhim unsuri sifatida quyidagicha ta’riflaydilar.

Innovatsiyalar — xilma-xil tashabbuslar yangiliklar asosida vujudga keladigan ta’lim evolyutsiyasi uchun istiqbolli bo‘ladi hamda uning rivojlanishiga shuningdek, ancha keng multimadaniy ta’lim makonining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan aktual ahamiyatli va tizim hosil qiladigan yangi narsalardir. Ta’limni rivojlantirishning innovatsion mexanizmlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

• barcha ta’lim muassasalari va tuzilmalarida ijodiy muhit yaratish, ilmiy va pedagogik hamjamiyatda tashabbuslar va yangiliklarga qiziqish paydo qilish;

1.• turli yangi narsalarning qabul qilinishi va amal qilishi uchun ijtimoiy-madaniy va moddiy (iqtisodiy) sharoitlar yaratish;

• izlanuvchan ta’lim tizimlarini hamda ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish;

2.• eng istiqbolli yangiliklar va mahsuldor loyihalarni real amal qilib turgan ta’lim tizimlariga integratsiyalash hamda to‘plangan innovatsiyalarni doimiy amal qiladigan izlanuvchan va eksperimental ta’lim tizimlari rejimiga o‘tkazish".

Innovatsiya tushunchasiga berilgan turli xil ta’riflarning tahliliga ko‘ra, innovatsiyaning o‘ziga xos mazmuni o‘zgarishlarni tashkil etadi, innovatsion faoliyatning asosiy funksiyasi o‘zgartirishdan iborat degan xulosa kelib chiqadi.

“Innovatsiya” tushunchasi doimo bir xil ma’noda ta’riflanmaydi, ko‘p hollarda u “yangilik kiritish” tushunchasi sifatida ko‘riladi, “innovatsion jarayon" tushunchasi esa, yangilik yaratish va ularni o‘zlashtirish hamda ta’lim muassasasi amaliyotida samarali qo‘lllashni ifodalaydi.

Amaliyotda “yangilik”, “yangilanish”, “yangilik kiritish” tushunchalari ko‘pincha tenglashtiriladi. lekin ularning o‘rtasida ba’’zi bir farqlar mavjud.

Yangilik - yangi tartib, yangi uslub, yangi metod, yangi ixtirolar bo‘lishi mumkin.

Yangilik kiritish - bu yangilikning qo‘llanishini bildiradi. Yangiliklarni amaliyotda qo‘llash va ommalashtirishga kirishilgan vaqtda u yangi sifatga ega bo‘ladi va innovatsiyalar vujudga keladi. Yangilik kiritishni ommalashtirish va ularni tashkil etish innovatsion jarayonning tashkil etuvchi qismlari hisoblanadi.

Innovatsion jarayonning uchta mantiqiy shakllari ajratiladi: tashkilot ichidagi oddiy jarayon, tashkilotlararo oddiy jarayon va kengaytirilgan jarayon. Tashkilot ichidagi oddiy innovatsion

jarayon bitta tashkilotning o‘zida, ya’ni ichki faoliyatida yangilikni misol etishni ko‘zda tutadi, bunda yangilik ommalashtirish shakliga ega bo‘lmaydi. Tashkilotlararo oddiy innovatsion jarayonda yangiliklar buyumlarni almashtirish sifatida almashtiriladi. Innovatsion jarayonning bu shakli yangilikni yaratganlarning funksiyasi, iste’molchilarning funksiyasidan farq qilishini ko‘rsatadi. Yangiliklarni ishlab chiqqan ixtirochilarning tanho huquqlarini (monopoliya) buzgan holda, mavjud yangiliklarni amaliyotga misol etuvchi yangi ishlab chiqaruvchilarning vujudga kelishida kengaytirilgan innovatsion jarayon yuzaga keladi va o‘zaro raqobat tufayli natijaning xususiyatlari takomillashib boradi.

Innovatsion jarayon sharoitida eng kamida ikkita subyekt: yangilik kiritishning tashkilotchilari va iste’molchilar (foydalanuvchilar) faoliyat ko‘rsatadi. Agar yangilik texnologik jarayon bo‘lsa, uning tashkilotchilari (ishlab chiqaruvchi) va iste’molchilari bitta subyekt sifatida faoliyat ko‘rsatishi mumkin.

Oddiy innovatsion jarayon ikkita davr orqali hayotiy odat tusiga o‘tadi:

1). Yangiliklarni yaratish va ularni ommaviylashtirish;

2) . Yangiliklar diffuziyasi.

Birinchi davr — bu ilmni tadqiqotning ketma-ketlikdagi bosqichlari, loyihalash ishlari. Tajriba ishlarini tashkil etish. Ishlab chiqarishni tashkil etish kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda yangilik kiritish va samaradorlikka erishish amalga oshirilmaydi. Faqat uni amalga oshirib samaradorlikka erishish mumkinligi ko‘zda tutiladi.

Ikkinchi davrda ijtimoiy-foydali natija yangiliklarni ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida shuningdek ishlab chiquvchilar va iste’molchilar o‘rtasida qayta taqsimlanadi

Innovatsiyalarni ommalashtirish-bu axborotlar jarayoni. Kommuniikatsion vositalarning qudratiga bog‘liq bo‘lgan axborotlar almashinuvining shakli va tezligi, subyektlarning axborotlarni qabul qilish xususiyatlari va mazkur axborotlardan amaliyotda foydalanish qobiliyatlari va hokazo.

Innovatsiyalar diffuziyasi-ijtimoiy tizim a’zolari o‘rtasida yangiliklarning kommunikatsion vositalar orqali vaqti-vaqti bilan uzatilish jarayoni. Ma’lum bir subyekt uchun bo‘lgan g‘oya, narsa va texnologiyalar yangiliklarni tashkil etishi mumkin. Boshqacha so‘z bilan aytganda, diffuziya-avval ishlatilgan va o‘zlashtirilgan innovatsiyalarni yangi sharoitda yoki yangi joyda ommalashtirishni bildiradi. Diffuziyaning natijasida yangiliklarning tashkilotchilari sifatida yangiliklardan foydalanuvchilarning soni ko‘payadi.

Boshqaruvni sub’yektning maqsadlariga taxminan mos keluvchi tashkiliy tizimning o‘zgarishi, ya’ni, murakkab, ko‘p darajali jarayon sifatida izohlashda quyidagi bir qator xususiyatlarni innovatsiyalarga xos xususiyatlar deb hisoblash mumkin: dialektiklik, davriylik. asoslanganlik darajasi, ixtiloflilik, ahamiyatlilik, tavakkalchilik, rahbarlik uslublarini tavsiflash qobiliyati, vaziyatga aloqadorlilik. tarkibiy tuzilishga egaligi (strukturaviylik), innovatsion harakatlar stratyegiyasini shakllantirish imkoniyati, boshqaruvchanlik. ijtimoiy mo‘ljallanganlik, insonlarni qiziqishi bo‘yicha tabaqalashtirish qobiliyati. innovatsiyalarning subyekt tomonidan qabul qilinishi.

Dialektiklik - bu innovatsiyalarning rivojlanish jarayoni bo‘lib, uning me’yoriy asoslari sekin-asta, bosqichma-bosqich yangilanib borish jarayoni bilan tavsiflanadi. Innovatsiyalar mavjud urf-odat va an’analar bilan ijodiy ziddiyatlarni vujudga keltiradi hamda ular asosida amalga oshiriladi va rivojlantiriladi. Bu tizimning uzluksizligi muassasaning innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichini belgilaydi.

Innovatsiyaning davriyligi insonlar ongida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan madaniy an’analarning maqsadga muvofiq holda, sekin-asta almashinib borishida tasdiqlanadi. Chunki mustahkam o‘rnashib qolgan tushunchalar, fikrlar, idrok va xulq-atvorning birdaniga o‘zgarishi insonning shaxsiy xislatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi va uning ma’naviy-axloqiy, o‘zini-o‘zi anglash asoslarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Innovatsiyaning asoslanganlik darajasi sifatli o‘zgarishlarning miqdori bilan ifodalanadi. Innovatsiya mavjud bo‘lgan harakatdagi standartlardan qanchalik ko‘p farq qilsa uni o‘zgartirish salohiyati va asoslanganlik darajasi shuncha yuqori bo‘ladi.

Innovatsiyaning ixtiloflashgani. Ixtiyoriy yangilikni kiritish o‘ziga xos xususiyatlarga bog‘liq bo‘lmagan holda ixtilof vaziyatlarni vujudga keltirishi mumkin. Chunki vakolat va imtiyozlarning munosabatlarining murakkablashishiga bog‘liq holda, tashkilotda odat tusiga kirgan o‘zaro ta’sir va munosabatlarni o‘zgartiradi.

Innovatsiyaning ahamiyatliligi - innovatsion jarayon davrida tashkilot rahbarlarida xodimlarning yangiliklarga bo‘lgan munosabatlarini obyektiv baholash imkoniyati tug‘iladi, jamoada ichki munosabatlarning o‘zgarishi, keskinlashuvi vujudga keladi va o‘z navbatida mazkur jarayonga mos keluvchi boshqaruv taktikalarini ishlab chiqish imkoniyati tug‘iladi.

Innovatsion tavakkalchilik. Innovatsiyaning ehtimollik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Natijaviylikka ishonchsizlik innovatsiya subyektida tavakkalchilik va xavotirlanish hissiyotlarini

vujudga keltiradi hamda tatbiq etish faoliyatining natijalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Innovatsiyaning rahbarlik uslublarini tavsiflash qobiliyati. Innovatsion мo‘ljallangan rahbarlik uslubi innovatsion jarayonning natijasiga xodimlarning shaxsiy qiziqishlarini vujudga keltirishni ko‘zda tutadi.

Innovatsiyalarning boshqaruvchanligi-yangiliklarni tatbiq etishda tashkiliy vaziyatlarni rivojlantirishning dasturlashtirish imkoniyatlariga bog‘liq bo‘ladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan sifatlarning ahamiyati boshqaruv yangiliklarining ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-psixologik tizimlarning ajralmas qismi sifatida yangi jarayonga moslashuvchan, o‘z-o‘zini yangilovchi mexanizm ekanligini tavsiflaydi.

Innovatsion faoliyatga yetaklovchi omillar obyektiv va subyektiv xususiyatlarga ega bo‘lib, uning asosiy yo‘nalishini belgilaydi. Innovatsion faoliyat jarayonini tashkil etishning pedagogik shartlari maqsadga yo‘naltirilgan, ilmiy asoslangan jarayonlarda innovatsiyalarning rivojlanishini takomillashtirish uchun imkoniyat yaratadi.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirishda uni tashkil etish jarayonini oldindan modellashtirish asosida yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion jarayonlarni boshqarish modeli tashkilotda o‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi funksional vazifalari aniq belgilangan mutaxassislar boshqaruv subyekti strukturasini tasvirlaydi.


Ta’lim muassasalari amaliyotiga innovatsion modellarni samarali tatbiq etishning boshlang‘ich shartlari sifatida:

- ✓ umumiy maqsadlarning mavjudligi; boshqaruv strukturasining qulay va demokratik xususiyati;
- ✓ axborotlar almashinish tizimi orqali tizim osti tizimlarning gorizontal muvofiqlashtirilishi;
- ✓ rahbarlarning yuqori darajada professional kompetentligi (o’z sohasining mohir ustasi bo‘lishi);.
- ✓ jamoada psixologik muhitning ijobiyligi;

Innovatsion faoliyatda tarbiyachilarning samarali ishtirokini ta’minlovchi chora-tadbirlarni keltirish mumkin.

Innovatsion jarayonning tarkibiy tuzilishini (1-shakl) muammolar, yangilanishga ehtiyoj: subyektlar; maqsad, vazifalar; mazmun; metodlar; natija tashkil etadi.

Quyidagi shakldan ko‘rish mumkinki, innovatsion jarayonni tashkil etish hamda ko‘zlangan natijalarga erishishda eng avvalo, ta’lim tashkilotidagi mavjud muammolarni o‘rganish va tahhlil qilish, mavjud muammolarni bartaraf etishda bajarilishi zarur bo‘lgan vazifalarni, maqsadni aniqlash, shuningdek, barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma’lumotlar olish uchun qator metodlar ham qo‘llaniladi: pedagogik tajriba-sinov, so‘rovnomalar, hujjatlar tahlili va h.k. Bu metodlarni qo‘llash yordamida olingan ma’lumotlar ishlab chiqilgan innovatsion modelning hayotiy ahamiyatini aniqlashga imkoniyat yaratadi.



1-shakl. Innovatsion jarayonning tarkibiy tuzilishi.

Ta’lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni boshqarishning turli modellarini tatbiq etish quyidagilarni nazarda tutadi:

- jarayonlar samaradorligini (boshqaruv sifatlari, innovatsion faoliyatga qiziqish va tayyorlanish) ta’minlovchi. Boshqaruv subyekti xususiyatlarini ishlab chiqish;

- tatbiq etish (tajriba-sinov ishlarini, pedagogik tahlil, o‘zaro kuzatish, ustoz-shogird tizimi, seminarlar, maslahatlar) shakllari vosita va metodlarini ishlab chiqish.

Pedagogik jamoa a’zolarini innovatsion jarayonga jalb etish alohida bir jamoa a’zosining faoliyatiga yoki butun jamoa faoliyatiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Innovatsiyalarni tatbiq etishning natijaviyligini tekshirish ularning samaradorligini baholash masalalarini hal etishni talab etadi va bunga quyidagilar misol bo‘ladi:

- pedagogik jamoaning kasbiy mahorati o‘sishi;
- jamoada ijtimoiy-psixologik muhitning mustahkam va ijobiy xususiyatlari;
- ta’lim va tarbiya jarayonini yangilashga jamoaning tayyorligi;
- jamoaning ilmiy va ilmiy-metodik salohiyatini oshirishga moyillik;
- pedagoglar o‘rtasida axborotlar almashinuvi sifatining o‘sishi;
- o‘quvchilarni ta’lim tizimining turli bosqichlarida ta’limni davom ettirishlari uchun tayyorlash sifati.

Shu qatori innovatsion faoliyatda pedagoglarning ishtirok etish asoslari ham muhim ahamiyatga ega (masalan, ta’lim muassasalarini o‘zgartirish, yangilash jarayonida pedagoglar ishtirokini muhim va zarur deb hisoblaydimi yoki zarur deb hisoblamaydimi va h.k.). Jamoadagi munosabatlarni ham tahlil qilish muhim hisoblanadi, chunki bu pedagogik jamoada ijobiy ruhiy muhitning shakllantirilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olishga imkoniyat yaratadi. Jamoadagi o‘zaro munosabatlar quyidagi belgilar orqali tavsiflanadi:

- o‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlashar”;
- “ishonch va bir-biriga nisbatan yuqori darajadagi talabchanlik”;
- “jamoaga tegishli bo‘lgan masalalar muhokamasi jarayonida o‘z fikrini erkin ifodalash”.

✓ Ta’lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni samarali boshqarishni amalga oshirish uchun quyidagi talablar qo‘yiladi:

- Ta’lim tizimini boshqarishning mavjud tizimi bilan uning integratsiyalashuvini amalga oshirish;
- Ta’limning ixtisoslashtirilgan ta’lim dasturlari bilan bog‘liqligini ta’minlash masalalariga tizimli yondashuvni misol etish;
- boshqaruv subyekti obyektning funksiyalari va strukturasiga mos keladigan qulay va rivojlantiruvchi innovatsion faoliyat modellariga ega bo‘lishi zarur. Ya’ni, ta’lim innovatsiyalarining barcha asosiy shakllarining integratsiyalari amalga oshiriladigan ta’lim muassasasi uchun ta’lim dasturlarining samarali bajarilishini ta’minlovchi yangiliklarni kengaytirish, rivojlantirish, qo‘llab-quvvatlash, takomillashtirish va muvofiqlashtirish imkoniyatlarini yaratuvchi yangiliklar bilan boyitilgan mukammal boshqaruv strukturasini yaratish zarur.

Boshqaruv faoliyati asosan innovatsion jarayonlar natijasida rivojlanadi. Innovatsion boshqaruvning turli xil modellarini samarali tatbiq etishning asosiy shartlari: boshqaruv strukturasining qulay va demokratik xususiyatlari; tizim osti tizimlarni muvofiqlashtirishning aniqligi; rahbar xususiyatlarining ta’lim tizimining rivojlanish va harakatlanish samaradorligini saqlashga mos kelishi; pedagogik jamoa xususiyatlari majmuasi: kadrlarni o‘qitish, innovatsion jarayonlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar belgilash va amalga oshirish hisoblanadi.

Umumiy holda, ta’lim muassasalari boshqaruvida innovatsion faoliyatni ta’minlashning nazariy tahlili uning obyektivligini, yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishda uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari asosida, zamonaviy talablarga mos yangi vazifalarni bajarish, o‘quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta’limga tabaqalashtirilgan yondashuv, ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik va yangi axborot texnologiyalarini misol etish zaruriyatini isbotlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.U.Murakayev, I.S.Saidnazarov Menejment asoslari. –T.: O‘zbekiston, 2001y.
2. J.Jalolov, I.Ahmedov.Marketing tadqiqotlari. – T.: 2005-y.
3. N.A.Volgina Ekonomika truda: ыnochnыe i sotsialnыe aspektы: uchebno-metodicheskiy kompleks dlya podgotovki magistrov. /Pod obщ. red. N.A.Volgina.- M.: Izd-vo RAGS, 2010.
4. R.A.Fatxitdinov. Strategicheskiy marketing. “Piter”-M.:2006 g.
5. F.Valiyeva. “Maktabgacha ta’limda innovatsion menejment”. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan Ziyo nashriyoti. 2022-y.

6. G‘ulomov S.S. Menejment asoslari. – Toshkent: “Sharq”, 2002.